



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19508826>

---

## SINGAPUR TA'LIM MODELII (maktabgacha ta'lim tashkiloti misolida)

---

**Fozilova Odina Nabiyevna** –  
Farg'ona davlat universiteti  
Maktabgacha ta'lim kafedrasii dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: [abobakirovaodina78@gmail.com](mailto:abobakirovaodina78@gmail.com)  
ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-7616-7612>

**Xamdamova Mubina Xurmatjon qizi** –  
Farg'ona davlat universiteti talabasi  
E-mail: [dexqonovamubina06@gmail.com](mailto:dexqonovamubina06@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda Singapur ta'lim modelida o'yin orqali ta'lim berish yoritib berilgan. Bolalarning rivojlanishidagi o'zgarishlar, o'yin va uning ahamiyati, Singapurning zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** Singapur, innovatsion metodlar, "PISA" student assisment, Alpha Green, ECDA, IEYC, IPC, Nanyang texnologilar universiteti, Carpedium Diem Preschool SG, Modern Mntessori International tashkiloti.*

## СИНГАПУРСКАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ (на примере дошкольной образовательной организации)

***Аннотация.** В данной статье рассматривается сингапурская модель обучения через игру в дошкольном образовании. Обсуждаются изменения в развитии ребенка, важность игры и современная организация дошкольного образования в Сингапуре.*

***Ключевые слова:** Сингапур, инновационные методы, оценка учащихся PISA, Alpha Green, ECDA, IEYC, IPC, Наньянский технологический университет, дошкольное учреждение Carpedium Diem Preschool SG, Modern Montessori International.*

## SINGAPORE EDUCATIONAL MODEL (on the example of a preschool educational organization)

*Annotation.* This article discusses the Singapore model of play-based learning in preschool education. It discusses changes in child development, play and its importance, and the modern preschool organization of Singapore

*Keywords:* Singapore, innovative methods, PISA student assessment, Alpha Green, ECDA, IEYC, IPC, Nanyang Technological University, Carpedium Diem Preschool SG, Modern Montessori International.

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bu bolalarning ilk yoshidan boshlab har tomonlama rivojlanishini taminlaydigan muhim ta'lim tashkilotidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning aqliy, jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi va ularni maktab ta'limiga tayyorlaydi. Aynan shu davrda bolaning shaxs sifatida shakllanishi boshlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolani har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyatlar o'yin asosida tashkil etilib bolalarni mustaqil fikrlashi, nutqi, ijodkorligi va muloqot ko'nikmalari rivojlantiriladi. Maktabgacha talimda o'yin texnologiyasi bu samarali, tabiiy va bolaga mos ta'lim usulidir. O'yin orqali berilgan bilim mustahkam, qiziqarli va samarali bo'ladi.

Pedagog va psixolog olimlar o'yinni bola shaxsini shakllanishida asosiy omil sifatida e'tirof etgan. Jumladan, Lev Vygotskiy o'yinni bolalarning "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytiruvchi vosita deb hisoblagan. Uni fikricha, o'yin jarayonida bola o'zining real imkoniyatlaridan yuqori darajada faoliyat ko'rsatadi.

**Friedrich Frobel** "O'yin bolaning ichki dunyosini namoyon qiluvchi tabiiy faoliyat. U orqali bola atrof-muhitni anglaydi, maxsus didaktik materiallar orqali bolalarning tafakkuri rivojlanadi", deb ta'kidlab o'tgan o'z asarlarida.

Singapur davlati dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish bo'yicha yutuqlarga erishayotgan mamlakat hisoblanadi. Mamlakatda ta'lim tizimida e'tiborli jihatlari ham bor. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi chet el tajribalarini o'ziga singdirgan bo'lsa-da, ularning ayni nusxasiga aylanmagan, balki boshqalardan ko'plab ijobiy tomonlari bilan ajralib turuvchi o'ziga xosliklarga ega.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda o'yin asosidagi yondashuv bolalarning intellektual, ijtimoiy-emotsional, nutqiy va ijodiy rivojlanishida muhim pedagogik omil hisoblanadi. Klassik pedagogik qarashlarda, xususan, L.S.Vygotskiy o'yinni bolaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytiruvchi faoliyat sifatida talqin etadi. F.Frebel esa o'yinni bola tabiatiga mos, tarbiyaviy ahamiyatga ega tabiiy jarayon deb baholaydi. Shu jihatdan o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar rivojini ta'minlovchi samarali metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar Singapur maktabgacha ta'lim modelida ham o'yin, amaliy faoliyat va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor ekanini ko'rsatadi. Mazkur modelda bolalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur'atlari inobatga olinadi. Montessori yondashuvi ham aynan shu tamoyilga asoslanib, bolani mustaqil faoliyatga yo'naltirish, uning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish hamda o'yin va amaliy mashg'ulotlar orqali rivojlantirishni nazarda tutadi. Singapurdagi ayrim maktabgacha ta'lim

muassasalari tajribasi o'yinli, integrativ, interfaol va rivojlantiruvchi ta'lim muhitining samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va tavsifiy metodlar asosida qurildi. Nazariy tahlil yordamida pedagogik va psixologik manbalar o'rganildi, qiyosiy tahlil orqali Singapur tajribasi bilan mavjud yondashuvlar solishtirildi, tavsifiy metod asosida esa o'yin asosidagi ta'limning mazmuni, shakllari va amaliy ko'rinishlari yoritildi. Shuningdek, tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va rivojlantiruvchi ta'lim yondashuvlari tashkil etdi. Mazkur metodlar mavzuning ilmiy mohiyatini ochib berish, ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkonini berdi.

## **NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim jarayonida o'yin asosidagi yondashuvdan tizimli foydalanish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, o'yin faoliyati orqali bolalarda bilish faolligi oshadi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash elementlari shakllanadi, nutqiy faollik hamda ijtimoiy muloqot ko'nikmalari rivojlanadi. Bu holat o'yin faoliyatining faqat didaktik vosita emas, balki rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Singapur maktabgacha ta'lim tajribasining tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu modelda o'yin, amaliy faoliyat va integrativ yondashuv uyg'unligi yuqori darajada ta'minlangan. Jumladan, o'yin orqali o'qitish, bolalarning individual rivojlanish sur'atini inobatga olish, faol va mustaqil ishtirokini rag'batlantirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, o'yin, musiqa, hikoya qilish, tajriba va harakatli faoliyatlarni birlashtirgan kompleks mashg'ulotlar bolalarda nafaqat bilim, balki ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni ham shakllantiradi.

Montessori yondashuvi asosida tashkil etilgan erkin faoliyat muhitida bolalar mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va o'z faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelining amaliy samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'yinli metodlarning qo'llanilishi bolalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi hamda ijobiy motivatsiyani shakllantiradi.

O'yin asosidagi ta'limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish uning samaradorligini yanada oshiradi. Multimediali vositalar, rolli o'yinlar, interfaol mashg'ulotlar va integrativ topshiriqlar bolalarning diqqatini jalb etib, o'quv jarayonini jonlantiradi. Shu jihatdan qaraganda, an'anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlardan foydalanish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, olingan natijalar o'yin asosidagi ta'lim modelini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, o'yin, xalq og'zaki ijodi, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali bolalarning ma'naviy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish zaruratini yana bir bor asoslaydi.

Tadqiqot natijalarini amaliy misollar bilan boyitish maqsadida Singapurdagi Carpe Diem Preschool SG faoliyati ham tahlil qilindi. Mazkur maktabgacha ta'lim tashkilotida ijodiy o'qitish usuli asosida har bir bolaning individual salohiyatini ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratiladi. Ta'lim jarayonida bolalarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va kuchli tomonlarini hisobga olgan holda turli o'quv dasturlaridan foydalaniladi. Xususan, Shekspir timsolida til va savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, Mikelanjelo ijodidan ilhomlanib qurish-yasash, simmetriya va dizayn elementlarini o'rganish, Darwin misolida tabiatni anglash va ekologik tarbiyani shakllantirish, Betxoven vositasida musiqiy eshituv, ritm va harakat uyg'unligini rivojlantirish, Enshteyn yondashuvi asosida esa matematik tasavvur va mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan integrativ mashg'ulotlar

tashkil etiladi. Bunday yondashuv bolalarda nafaqat bilish faolligini, balki nutq, motorika, estetik did, ijodkorlik va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini ham kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida Toshkent shahridagi Turon Montessori bog'chasi faoliyatiga doir ma'lumotlar ham qiyosiy jihatdan ahamiyatli ekani aniqlandi. Ushbu muassasada Montessori metodikasi asosida bolalarning sezgi rivoji, mayda motorikasi, diqqat va tafakkuri, nutq rivoji, mustaqillik va mas'uliyat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Mazkur tajriba ilg'or xorijiy yondashuvlarning milliy maktabgacha ta'lim tizimida ham amaliy ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Shu bois Singapur tajribasi bilan mahalliy Montessori amaliyotini qiyoslash o'yin asosidagi, shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim modelining samaradorligini yanada aniqroq ochib berishga xizmat qiladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, o'yin vosita emas, balki muhit. Unda bolaga majburan bilim berilmaydi o'yin orqali tabiiy ravishda singdiriladi. Singapur modelida o'yin orqali ta'lim olish bolalarda kelajakda o'z yo'lini topishga yordam beradi. Bolalar kelajakda o'ziga ishongan, mustaqil fikrlaydigan, orzulari uchun mustaqil, qo'rqmay qadam tashlaydigan bo'lib yetishib chiqishiga imkon beradi. Bolalikni akademik qiyinchiliklardan saqlaydi, ammo bolani katta hayotga har tomonlama yetuk qilib tarbiyalaydi. Singapur ta'lim modeli bolalarni intellektual, jismoniy, emotsional rivojlanishida xizmat qiladi, bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayoni samarali tashkillanadi. Faoliyat jarayonida bolalar jamoa bo'lib ishlash, muloqot qilish, ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalar rivojlanadi. Pazandachilik, tikuvchilik kabi ishlar kundalik mashg'ulotlar ro'yxatiga qo'shilgan.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan Singapur ta'lim modeliga asoslangan zamonaviy bog'chalar tashkillanmoqda. O'zbekiston bog'chalarida interfaol usullar, didaktik o'yinlar, zamonaviy metodikalardan keng qo'llanilmoqda. Natijada tarbiyachidan zamon bilan hamnafas bo'lish, o'z ustida doimiy ishlab, malaka ortirish talab qilinmoqda. Bu esa, Singapur ta'lim modelidagi o'yin asosidagi ta'lim yondashuvi bilan uyg'un keladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Lev Vygotskiy "Mind in Society" (1978)
2. Friedrich Frobel "The Education of man" (1826)
3. XudoyberdiyevaTursiniy, tarbiyachilardagi pedagogik mahoratni rivojlantirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. Eurasian journal of academic research. Volume 2 Issue12, November2022.P.196
4. <https://linktr.ee/carpediem.preschool>.
5. [https://alphagreen.edu.sg/?gad\\_source=1&gad\\_campaignid=2347478662&gclid=Cj0KCQjwgr](https://alphagreen.edu.sg/?gad_source=1&gad_campaignid=2347478662&gclid=Cj0KCQjwgr).